| Digital Transformation of Tax Systems.....                                                                                                          | 1096 |
| <b>Boburjon Turanboyev Qodirjon o'g'li, Musabekov Sherali Nazarali o'g'li</b>                                                                       |      |
| Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish yo'nalishlari.....                                                      | 1101 |
| <b>Raxmonova Aziza Tolibovna</b>                                                                                                                    |      |
| Transitioning to a Green Economy and Implementing Sustainable Technological Changes in Uzbekistan.....                                              | 1106 |
| <b>Umarov Elshod G'ulom o'g'li</b>                                                                                                                  |      |
| Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari daromadlari tarkibi va ularning o'ziga xos jihatlari.....                                             | 1112 |
| <b>Yuldashov Elmurod Abdujalil o'g'li</b>                                                                                                           |      |
| Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана.....                                             | 1116 |
| <b>Икромов Ханифа Одилловна</b>                                                                                                                     |      |
| Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....                                                                                 | 1121 |
| <b>Kamalova Jamila</b>                                                                                                                              |      |
| O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarining huquqiy maqomi va ularni isloh qilishning istiqbollari.....                                      | 1125 |
| <b>Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li</b>                                                                                                                |      |
| Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi..... | 1131 |
| <b>Ne'matov Oybek Ismatullayevich</b>                                                                                                               |      |
| Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития.....                                                  | 1136 |
| <b>Туйчиев Комилжон Лазизович</b>                                                                                                                   |      |
| Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati.....                                                                            | 1143 |
| <b>O'ktamova Nozima Narzulla qizi</b>                                                                                                               |      |
| Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish.....                                                                        | 1146 |
| <b>Umarov Abdulquddus Abdilxatovich</b>                                                                                                             |      |
| Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах.....                                   | 1151 |
| <b>Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович</b>                                                                                         |      |
| Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....                                                                                 | 1158 |
| <b>Усманова Дилфузахон Иброхимовна</b>                                                                                                              |      |
| The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.....                                    | 1163 |
| <b>Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li</b>                                                                          |      |



|                                                                                                                                             |      |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida) .....          | 1168 |
| <b>Xolmatov Sanjarbek Xojimatovich</b>                                                                                                      |      |
| O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari .....                                                       | 1174 |
| <b>Qilichev Umid Ibadullayevich</b>                                                                                                         |      |
| Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari .....                                     | 1181 |
| <b>Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi</b>                                                                                                |      |
| O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari .....                                         | 1185 |
| <b>Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li</b>                                                                                                       |      |
| O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....                                               | 1191 |
| <b>Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li</b>                                                                       |      |
| Islom iqtisodiyotining mohiyati .....                                                                                                       | 1197 |
| <b>Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li</b>                                                                                                   |      |
| Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi ..... | 1201 |
| <b>G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li</b>                                                                                                      |      |
| Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari .....    | 1207 |
| <b>Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li</b>                                                                                                     |      |
| Перспективное развитие промышленной кооперации между странами .....                                                                         | 1212 |
| <b>Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы</b>                                                                                   |      |
| Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar .....                                                                         | 1218 |
| <b>Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna</b>                                                                                                      |      |
| Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili .....                                            | 1222 |
| <b>Nematov Inatillo Ubaydullayevich</b>                                                                                                     |      |
| Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish .....                                                                           | 1228 |
| <b>Umurzakova Adiba Ochilovna</b>                                                                                                           |      |
| Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari .....                                                                    | 1232 |
| <b>Raxmanov Ilxom Xurramovich</b>                                                                                                           |      |
| Факторы развития культурного туризма в Узбекистане .....                                                                                    | 1238 |
| <b>Пулатова Сурайё Юлдашевна</b>                                                                                                            |      |
| Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике .....                                                        | 1242 |
| <b>Рафиева Зарина Хусановна</b>                                                                                                             |      |
| Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries .....                              | 1246 |
| <b>Akhmedov Doniyorbek</b>                                                                                                                  |      |
| O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari .....                                                       | 1250 |
| <b>Azizova Manzura Ibragimovna</b>                                                                                                          |      |
| The theoretical importance of product cost reduction in industrial production .....                                                         | 1254 |
| <b>Dilfuza Baxramovna Safarova</b>                                                                                                          |      |
| Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari .....                                                                     | 1261 |
| <b>Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich</b>                                                                                                      |      |
| Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rne va ularni rivojlantirish yo'nalishlari .....                                       | 1266 |
| <b>Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna</b>                                                                                                   |      |
| Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati .....                                                                            | 1272 |
| <b>Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li</b>                                                                                                  |      |
| Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari .....                                                  | 1277 |
| <b>Ibragimov Gafurjan Axmetovich</b>                                                                                                        |      |
| Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi .....                                    | 1282 |
| <b>Ibragimov Mansur Axmedovich</b>                                                                                                          |      |
| Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida) .....                             | 1286 |
| <b>Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich</b>                                                                                                   |      |
| Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами .....                                                                 | 1294 |
| <b>Мансурова Севара Мансуровна</b>                                                                                                          |      |
| Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash .....                                                                                | 1297 |
| <b>Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna</b>                                                                                                     |      |



## KORXONALARDA KORPORATIV MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH ASOSLARI

**Sadikova Muslima Alisher qizi**

TDIU, "Korporativ boshqaruv" kafedrası PhD. doktoranti

**Annotatsiya:** Har qanday kompaniya va tashkilot uchun korporativ madaniyat juda muhim fenomen hisoblanadi. Uning mavjudligi, aniqlig'i, yaxshi rivojlangan korporativ madaniyat tashkilotning boshqaruv samaradorligini oshiradi, o'z maqsadlarini amalga oshirish intensivligiga hissa qo'shadi va uning jamoatchilik tomonidan idrok etilishini yaxshilaydi. Ushbu maqolada korporativ madaniyat etimologiyasi, mohiyati va aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ madaniyatni rivojlantirish zarurati tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** korporativ madaniyat, aksiyadorlik jamiyati, kompaniya, missiya, qadriyat, boshqaruv, samaradorlik.

**Sadikova Muslima Alisher kizi**

PhD. Researcher, TSUE, "Corporate governance" department

**Abstract:** For any company and organization, such a phenomenon as corporate culture is very important. Its presence, or rather, a well-developed corporate culture increases the effectiveness of management of an organization, contributes to the intensity of the implementation of its goals, improves its public perception. This article analyzes the etymology, the essence of corporate culture and the need to develop corporate culture in joint-stock companies.

**Key words:** corporate culture, joint stock company, company, mission, values, management, efficiency.

**Садикова Муслима Алишер кизи**

PhD. Докторант, ТГЭУ, кафедра "Корпоративное управление"

**Аннотация:** Для любой компании и организации очень важно такое явление, как корпоративная культура. Его наличие, а точнее, хорошо развитая корпоративная культура повышает эффективность управления организацией, способствует интенсивности реализации ее целей, улучшает ее общественное восприятие. В данной статье анализируется этимология, сущность корпоративной культуры и необходимость развития корпоративной культуры в акционерных обществах.

**Ключевые слова:** корпоративная культура, акционерное общество, компания, миссия, ценность, управление, эффективность

### KIRISH

Korporativ madaniyat kontseptsiyasi rivojlangan mamlakatlarda o'tgan asrning 20-yillarida qo'llanila boshlandi. Yirik firma va korporatsiyalar ichidagi munosabatlarni tartibga solish, shuningdek, ularning iqtisodiy, savdo va ishlab chiqarish munosabatlari infratuzilmasidagi o'rnini tushunish korporativ madaniyatga nazariy va amaliy jihatdan jiddiy yondashish zaruratini paydo qildi. Dastavval madaniyat so'zini tahlil qiladigan bo'lsak, "madaniyat" so'ziga yuzdan ortiq ta'riflar mavjud, ammo ularning barchasi bir narsada birlashadi: bu hodisa shaxs tomonidan shakllantiriladi.

Madaniyat odamlarning bir-biridan qanday xulq-atvor kutayotganligiga qarab shakllanadi. Madaniyat deklarativ bayonotlar va suhbatlarda ifodalanmaydi – aksincha, uning namoyon bo'lishini odamlarning xatti-harakatlarida ko'rish mumkin.

Korporativ madaniyatni tashkilot a'zolarining qadriyatlari, fikr-mulohazalari, xatti-harakatlar standartlari, ramzlar, munosabatlar va kompaniyaning o'ziga xosligini belgilaydigan biznes yuritish usullari to'plami sifatida aniqlash mumkin.

Korporativ madaniyat – tashkilotga korxona yoki tashkilotga taalluqli bo'lgan o'ziga xos, orginal ichki va tashqi identifikatsiya qiluvchi xususiyatlar majmuasidir.





## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Korporativ madaniyatning roli, ahamiyati bir qancha mahalliy va g'arb olimlari ilmiy ishlarida o'z aksini topgan. Ushbu yo'nalishda ilmiy izlanish olib borgan mashhur xorijlik olimlar T. E. Deal va A. A. Kennedi nazariyalariga ko'ra kompaniyalarda korporativ madaniyatni to'rtta darajasi mavjud: qadriyatlar – bu kompaniya va uning xodimlarining bir maqsadga yo'naltirilganligi va ikkala tomonning oliy maqsadlari va qadriyatlari kesishganligidir; qahramonlar – kompaniya qadriyatlarini shaxsiy qadriyatlari bilan uyg'unlashtirgan kompaniya rahbari yoki xodimi; marosimlar – kompaniyaning asosiy, ramziy sanalarini belgilash va ularni odatiy rituellarga aylantirish; munosabatlarni jipslashtirish – kompaniya xodimlarining qadriyatlar, qahramonlar va marosimlar haqida axborot olishi mumkin bo'lgan aloqa kanallarini yaratish va ta'minlash.

G'arblik olimlardan bo'lmish E. Sheyn korporativ madaniyatni o'z-o'zidan shakllangan yoki ishlab chiqilgan asosiy harakatlar to'plami deya ta'riflaydi.

A. Huczynski va D. Buchanan "kompaniya madaniyati va korporativ madaniyat bir-biriga doim ham mos kelavermaydi, chunki kompaniya madaniyati shakllantirilgan va tashkillashtirilgan tashkiliy madaniyatdir", degan fikrni ilgari surishgan. Bu olimlar hozirda munozarali bo'lib turgan korporativ madaniyat va tashkiliy madaniyatning farqlari va o'xshashliklarini kengroq yoritib berishgan. Ularning fikricha korporativ madaniyat tashkiliy madaniyatga nisbatan kengroq va chuqurroq tushuncha.

Korporativ madaniyat haqida bir qancha MDX mamlakatlari olimlari ham tadqiqot olib borishgan. Xususan, rus tadqiqotchisi A. A. Vyazankina fikriga ko'ra, korporativ madaniyatning tanqidiy tahlili, undagi quyidagi qarama-qarshiliklarni ajratib ko'rsatishga imkon beradi:

- demokratiyani e'lon qilishda avtoritar boshqaruv uslubi;
- rasmiyatchilik va norasmiylik hukmronligini e'lon qilish munosabatlari;
- byurokratiya, shaxsning guruhga yuqori qaramligi va individualizm.

Muallif, shuningdek, rus korporativ madaniyatiga xos bo'lgan bir qator xususiyatlarni ta'kidlaydi:

- hokimiyatga yo'naltirilgan va shaxsiy aloqalarning yuqori roli;
- konforda ixtiyoriy o'zini o'zi cheklash;
- jamoaviy ish va umumiy javobgarlik istagi;
- xodimlarni boshqarish va tashkilotga bo'lgan shaxsiy ishonchlari asosida rag'batlantirish;
- boshqalar hisobidan o'z farovonligiga erishish;
- qarorlarning shaffof emasligi;
- bir tashkilotning bo'limlari o'rtasida to'siqlar mavjudligi.

Mahalliy olimlardan D. B. Begmatova ham korporativ madaniyatni korporativ boshqaruv samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi komponent sifatida ta'riflagan.

Shuningdek, professor M. G. Umarxo'jayevaning ilmiy adabiyotlarida korporativ madaniyat va tashkiliy xulq masalalari kompleks o'rganilgan va nazariyalar real "case study"lar orqali ilmiy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Shundan kelib chiqib, korporativ madaniyat korxona missiyasi, qadriyatlari, adolatli va samarador yetakchilik usullarini jamlovchi fenomen sifatida o'rganilgan.

Korporativ madaniyatga olimlar bergan ta'riflarni umimlashtirib quyidagi fikrlarni keltirish mumkin:

- "U tashkilot muvaffaqiyati va farovonligi uchun ichki va tashqi to'siqlarni bartaraf qilishni o'rgatib, xulq-atvor normalari, artefaktlar, qadriyatlar, tasavvur va tushunchalar majmuyidir"<sup>1</sup>;
- "Muammoni yechish tajribasini o'zida mujassam etgan ijtimoiy yaratilgan haqiqatlardir"<sup>2</sup>. Ushbu ta'rif korporativ madaniyatning asosida o'zgaruvchan reallik sharoitida ijtimoiy o'zaro ta'sir natijasida egalangan bilim olish jarayoni ekanligi takidlaydi;
- "Moddiy va ma'naviy qadriyatlar tizimi bo'lib, ijtimoiy va tashqi muhitda namoyon bo'ladigan tashkilot individualligi, o'zligini tan olishi va boshqalarning o'rnini anglashdir. Buning natijasida tashkilot atrof-muhitdagi hulq atvori, hamkorligi, o'zligini idrok etishni aniqlaydi"<sup>3</sup>.

1 Oden H. W. Managing Corporate Culture, Innovation, and Intrapreneurship. Westport, Conn.: Quorum Books, 1997.

2 Thompson K. R., Luthans F. Organizational Culture: A Behavioral Perspective// Organizational Climate and Culture. Ed. Benjamin Schneider. San Francisco: Jossey-Bass, 1990.

3 Sadikova Muslima – "The leadership style in banking system. Ways of increasing the effectiveness of companies in corporate governance"/article- november, 2020// TRANS Asian Journal of Marketing & Management Research (TAJMMR)

- Korporativ madaniyat ish beruvchining xohishi yoki tashkilot boshqaruvi orqali yaratiladi, tashkilotning barcha xodimlari uchun majburiy bo'lgan qoidalar to'plami hisoblanadi. Korporativ madaniyat – demokratik hodisa, sababi bu qoidalar xodimlarning o'zlari ishtirokida ishlab chiqilgan. Garchi qat'iy bajarilish talabi qo'yilmagan bo'lsa ham ongli ravishda jamoaviy rioya etiladi.
- Korporativ madaniyat qadriyatlar, normalar, artefaktlar tilida tasvirlanadi. Uning tavsifi uchun mazmunini ochib beradigan parametrlarini aniq belgilash lozim.


## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, solishtirma tahlil, tanlama kuzatuv, ilmiy abstraksiyalash usullari qo'llanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Korporativ madaniyat va tashkiliy madaniyat tushunchalari soha olimlari tomonidan turlicha talqin qilinadi. Hozirgi kunda bu munozarali dilemma hali hamon dolzarbligini yo'qotmagan. Ilmiy izlanishlar davomida ushbu yo'nalishda tadqiqot olib borgan olimlarning fikrlari o'rganilib, ularni shartli ravishda ikki guruhga bo'ldik. Birinchi guruh olimlari tashkiliy madaniyat va korporativ madaniyat mohiyati, vazifasi, maqsadi jihatidan analog, ya'ni sinonim tushunchalar deb fikr yuritishadi. Ikkinchi guruh olimlari esa, korporativ madaniyat tashkiliy madaniyatning mukammallashgan kengroq shakli degan gipotezani ilgari surishadi.

Tashkiliy madaniyat va korporativ madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari 1-rasmda tasvirlangan.



1-rasm: Korporativ madaniyat va tashkiliy madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari<sup>4</sup>

Kompaniya madaniyatini shakllantirish jarayoni tizimli yondashishga asoslangan bo'lishi kerak. Birinchidan, korporativ madaniyat funksiyalarni belgilash, zarur moliyaviy, moddiy, axborot va boshqa resurslarni belgilash, mexanizmini yaratish kerak.

Korporativ madaniyatning asosiy funksiyalari bu – korporatsiya qadriyatlarini shakllantirish, to'plash, targ'ib qilish va asrash (axloq me'yorlari, xatti-harakatlar qoidalari, muayyan tarixiy voqealar, rituallar, hamkorlar va mijozlar bilan munosabatlar).

Rasmiy va norasmiy tadbirlarni birlashtirish, odamlarga kompaniyaning strategik faoliyatiga qanday ta'sir qilishini bilish imkonini beruvchi yangi, missiya uchun muhim xatti-harakatlar targ'ib qilinarkan, yangi qoidalar, ko'rsatkichlar va tashabbuslar kabi rasmiy yondashuvlarni norasmiy o'zaro ta'sirlar bilan birlashtirish muhim jarayon hisoblanadi(1-jadval).

4 Muallif ishlanmasi

1-jadval: Korporativ madaniyat salohiyatini ochish mexanizmlari<sup>5</sup>

| Rasmiy                                                                                   | Norasmiy                                                                       |
|------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------|
| -hisobotlar                                                                              | -yuqori boshqaruvning xatti- harakatlariga misollar                            |
| -qoidalar va qaror qabul qilish huquqlari                                                | -boshqaruvchilar va xodimlar o'rtasidagi aloqalar                              |
| -biznes jarayonlari va siyosatlar                                                        | -ichki va tashkilotlararo tarmoqqa ulanish                                     |
| -o'quv dasturlari, yetakchilikni rivojlantirish va tashkiliy tuzulmani takomillashtirish | -maxsus uchrashuvlar                                                           |
| -ishlash samaradorligini boshqarish                                                      | -adolatli muloqot                                                              |
| -ish haqi va mexnatga haq to'lash tizimi                                                 | -qiziqarli jamoalar                                                            |
| -ichki aloqalar                                                                          | -namunali xodimlar va rag'batlantiruvchi boshqaruvchilarning o'zaro hamkorligi |
| -kengashlar, qo'mitalar                                                                  | -uskunalar va resurslar                                                        |
| -korporativ tadbirlar                                                                    |                                                                                |

Korporativ axborot tizimini shakllantirish, ya'ni har bir xodimning professionalligini va malakasini oshirish, o'z texnologiyalar, mahsulotlar ishlab chiqish, korxona intellektual mulkini yaratish, tadqiqot va ilmiy-izlanishlar o'tkazish ham rasmiy ham norasmiy axborot kanallarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Korxona ichki kommunikatsiya va aloqa tizimini shakllantirishiga (usullari va aloqa shakllari), boshqaruv tizimi va xodimlarning orasida ochiq muloqot tizimini mavjudligi, xodimlarning axloq qoidalari kodeksini ishlab chiqish kabilar kiradi. Korporatsiyaning tashqi kommunikatsiyasiga esa ijtimoiy aloqalarni yaratish, hamkorlar bilan aloqalar, ijobiy va jozibador obro'ni yaratish, korporativ usulni ishlab chiqish va ijtimoiy missiyasini amalga oshirish kiradi.

Korporativ madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish xodimlarni ta'lim olishga, ilmiy faoliyatga yo'naltirilgan yangi biznes-jamiatni shakllantirishga imkon beradi. Ko'pchilik boshqaruvchilarning xatti-harakatlar zanjirini shakllantirish va nazorat qilish bo'yicha tashkilotning korporativ madaniyati quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak<sup>6</sup>:

- Xodimlarning professionalligi
- Firmaga sodiqlik(Loyalty)
- Malakali mutaxassislarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish
- O'z o'rnida xodimlar esa korporatizmni shunday qabul qiladilar:
- Hamkasblar bilan do'stona munosabatlar
- Professional o'sish imkoniyati
- Moddiy imtiyozlar va mukofotlar
- Xodimlarni lavozimga ko'tarish, tug'ilgan kun yoki kasb bayrami bilan tabriklash
- Muhim bir guruhga, jamiyatga tegishli bo'lish hissi
- Kompaniyadagi rejalar va ishlarning holati haqida xodimlarning xabardorligi

Ba'zi tadqiqotchilar korporativ madaniyatning ikkita komponentini ajratib ko'rsatishadi<sup>7</sup>:

1. Ideal madaniyat – ideal tasvirlar (ma'nolar, qadriyatlar, ijtimoiy me'yorlar, ijtimoiy yo'nalishlar), bilim (ilmiy, amaliy) va har bir ishtirokchi ushbu madaniyatning ma'lum bir qismini yaratadi.
2. Moddiy madaniyat dunyoning subyektiv elementlari: narsalar; obyektiv faoliyat; moddiy munosabatlar; ijtimoiy tashkilotlar; atrof-muhit.

Moddiy komponentlar hal qiluvchi rol o'ynaydigan tuyg'u madaniyatining tashuvchilari bo'lsa, ma'no ma'naviy qadriyatlar va moddiy narsalarni mazmun bilan to'ldiradi, ya'ni ularning madaniy mohiyatini ochib beradi<sup>8</sup>.

5 Harvard business Review 10 luchshyx statey Korporativnaya kultura A Didjital 118s

6 Luigi Guiso, Paola Sapienza, Luigi Zingales-"The value of corporate culture"//Journal of Financial Economics//Volume 117, Issue 1, July 2015, Pages 60-76

7 Masaki Sugita, Takuya Takahashi-"Influence of Corporate Culture on Environmental Management Performance: An Empirical Study of Japanese Firms"//Corporate Social Responsibility and Environmental Management// 24 september,2013

8 Corporate governance: Principles, Policies, and practices. – book by r. ian (Robert ian) tricker 2019. Testyn Craidd – Core Text



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Korporativ madaniyat tashkilotda ijtimoiy barqarorlik tizimini yaratadi, u o'ziga xos ijtimoiy hodisa bo'lib, tashkilotni birgalikda ushlab turishga yordam beradi, kompaniyaning o'ziga xos xulq-atvor standartlarini ta'minlaydi. Korporativ madaniyatni berilgan, mutlaq narsa deb hisoblash mumkin emas: tashkilotdagi odamlar va hodisalar o'zgarganda u doimo o'zgarib turadi.

Korxona iqtisodiy samaradorligining o'sishi, xodimlarni rag'batlantirishning ma'naviy tarkibiy qismlarini yetarli darajada moddiy rag'batlantirish bilan birga rivojlantirish, shaxsiy munosabatlarga asoslangan shajara(ierarxiya)ning ustunligi o'niga xodimlarning shaxsiy salohiyati va rivojlanishiga e'tibor berish samarali korporativ madaniyatni shakllantirishning muhim omillariga aylanishi mumkin. Uzoq muddatli rivojlanish va korxona boshqaruvi samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Shulardan kelib chiqib, korxona korporativ madaniyatini baholashda quyidagi elementlarini o'rganish tavsiya qilinadi:

- tashkilotda belgilangan qoidalar, qadriyatlar, missiya, strategiya;
- o'rnatilgan an'analar va marosimlar;
- tashkilotning tarixi;
- tashkil etilgan boshqaruv amaliyoti;
- til muloqati.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Oden H. W. Managing Corporate Culture, Innovation, and Intrapreneurship. Westport, Conn.: Quorum Books, 1997.
2. Thompson K. R., Luthans F. Organizational Culture: A Behavioral Perspective// Organizational Climate and Culture. Ed. Benjamin Schneider. San Francisco: Jossey-Bass, 1990.
3. Sadikova Muslima – "The leadership style in banking system. Ways of increasing the effectiveness of companies in corporate governance"/article- november, 2020// TRANS Asian Journal of Marketing & Management Research (TAJMMR).
4. M. A. Sadikova, M. G. Umarxodjayeva, N. I. Akramova, and A. R. Yusupov – "The transformation of organizational culture to corporate culture in joint stock companies" – E3S Web of Conferences 401, 03055 (2023). CONMECHYDRO – 2023(Scopus/).
5. Harvard business Review 10 лучших статей Корпоративная культура А Диджитал. – 118 с.
6. Luigi Guiso, Paola Sapienza, Luigi Zingales-"The value of corporate culture"/Journal of Financial Economics//Volume 117, Issue 1, July 2015, – Pages 60-76.
7. Masaki Sugita, Takuya Takahashi-"Influence of Corporate Culture on Environmental Management Performance: An Empirical Study of Japanese Firms"/Corporate Social Responsibility and Environmental Management// 24 september, 2013.
8. Corporate governance: Principles, Policies, and practices. – book by Bob (Robert Ian). – Tricker 2019. Testyn Craidd – Core Text.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 11-12**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.